



THE SELJUK TURKAN-KHATUN, OR THE TEMPTATION OF THRONE AND CROWN

Rakhman Mukhammadiev

Associate Professor, PhD

Tashkent International University of Kimyo

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Turkan Khatun, Seljuks, Malikshah, Sultan, Nizam al-Mulk, Caliph, Barqiyaruk, Zubayda Khatun, Mahmud, Isfahan, Rey, Taj al-Mulk, Mahmalak.

Received: 20.05.25

Accepted: 22.05.25

Published: 24.05.25

Abstract: This article examines Turkan Khatun, the beloved wife of the Seljuk ruler Sultan Malikshah, and her political struggle for the throne. It describes her confrontation with the Grand Vizier Nizam al-Mulk, as well as her alliance with military officials, courtiers, and the Baghdad Caliph, formed with the aim of appointing her children as heirs to the throne. Additionally, the article recounts the circumstances of the queen's death.

SALJUQIY TURKON XOTUN YOXUD TOJU-TAXT VASVASASI

Raxmon Muxammadiyev

dotsenti v.b., PhD

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Turkon xotun, saljuqiyalar, Malikshoh, sulton, Nizomulmulk, xalifa, Barqiyoruq, Zubayda xotun, Mahmud, Isfahon, Ray, Tojulmulk, Mohmalak.

Annotatsiya: Ushbu maqolada saljuqiy hukmdor sulton Malikshohning suyukli xotini bo'lgan Turkon xotun va uning toju-taxt uchun olib borgan siyosiy kurashlari, bu yo'lida uning buyuk vazir Nizomulmulk bilan to'qnashuvni hamda o'z farzandlarini valiahd etib tayinlanishi uchun harbiy amaldorlar, saroy ahli va Bog'dod xalifasi bilan tuzgan ittifoqi, malikaning vafoti tarixi bayon qilingan.

СЕЛЬДЖУКСКАЯ ТУРКАН-ХАТУН, ИЛИ ИСКУШЕНИЕ ТРОНА И КОРОНЫ

Рахмон Мухаммадиев

и.о. доцента, PhD

Ташкентского международного университета Кимё

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Туркан-хатун, сельджуки, Маликшах, султан, Низам аль-Мульк, халиф, Баркиярук, Зубайда-хатун, Махмуд, Исфахан, Рей, Тадж аль-Мульк, Махмалак.

Аннотация: В данной статье рассматривается Туркан-хатун, любимая жена сельджукского правителя султана Маликшаха, и её политическая борьба за престол. Описывается её противостояние с великим визирем Низам аль-Мульком, а также союз с военными чиновниками, придворными и багдадским халифом, заключённый с целью назначения её детей наследниками престола. Кроме того, излагается история смерти царицы.

Tarixda ma'lum bir sulola yoki davlatning siyosiy boshqaruv tarixida, ularning keyingi yuksalishi va aksincha tanazzulida muhim o'rin tutgan ayollar nomlari kamdan-kam uchraydi. Ayniqsa, sharq solnomalarida ayollar ismlari juda kam qayd etilgan. Turkiy, eroniy, arab tarixchilarining asarlarida asosan g'aznaviylar, saljuqiylar yoki qoraxoniylar zodagon urug'laridan chiqqan sarkardalar va erkak hukmdorlarning faoliyati haqida so'z yuritiladi. U yerda yuzlab erkak ismlari orasida faqat bir nechta ayollar ismlari tilga olingan, ular ham faqat falon hukmdorning onasi, xotini yoki qizi sifatida zikr etilgan.

Biroq XI-XII asrlarda Qoraxoniylarning qudratli hukmdorlari sulolasiga mansub bo'lgan ayollardan biri, Buyuk saljuqiy sulton Malikshohning rafiqasi Turkon xotun haqida manbalar bu o'ziga xos xarakter sohibasi bo'lgan ayol haqida bir-birini to'ldiruvchi, ba'zan esa qarama-qarshi bo'lgan ma'lumotlarni beradi.

Bizga ma'lum bo'lgan tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, 1080-yillarning oxirida Buyuk saljuqiylarning yetmish yoshli vaziri Nizomulmulk va sulton Malikshohning suyukli xotini Turkon xotun o'rtasida toju-taxt vorisini tayinlash hamda davlat boshqaruvini o'z izmiga olish uchun halokatli bo'lgan mojaro yuzaga kelgan. Vazir Nizomulmulkga qarshi muxolifat saljuqiylar saroyining boshqa bir vaziri Toj al-Mulk va sultonning birinchi hamda eng nufuzli xotini, qoraxoniylar malika Turkon xotun atrofida shakllangan. Turkon xotun nafaqat go'zal, balki kuchli xarakter va cheksiz ambitionsyalarga ega ayol edi.

Turkon xotun yoki Jaloliya xotun 1072-92-yillarda hukmronlik qilgan Buyuk Saljuqiylar sultonasi Malikshoh I ning birinchi va eng suyukli rafiqasi hisoblangan. Turkon xotun G'arbiy Qoraxoniylar xonligi xoqoni Ibrohim ibn Nasr Tabg'achxonning qizi bo'lgan. U saljuqiylar

sulton Alp Arslonning to‘qqiz yoshli o‘g‘li Malikshohga turmushga berilgan. Tarixchilar to‘y sanasini turli yillar deb ko‘rsatishgan va ko‘pincha manbalarda 1064-1068-yillar oralig‘i ko‘rsatiladi. Uning asl ismi noma'lum, tarixiy manbalarda faqat Turkon xotun laqabi bilan qayd etilgan va shu nom bilan shuhrat qozongan. Uni sulton Malikshohning “Jalol ud-davla vad-din” laqabi bilan Jaloliya xotun deb ham atashgan [Bezer, 510].

Turkon xotun va sulton Malikshohning uch nafar o‘g‘il farzandi bo‘lgan, ammo ularning ikki katta o‘g‘li navqiron paytlaridayoq vafot etishgan. Turkon xotun to‘ng‘ich o‘g‘li Dovudni juda yaxshi ko‘rgan va taxt vorisi bo‘lishi hohlagan. Sulton Malikshoh suyukli xotining qistovi bilan uni merosxo‘r deb e’lon qiladi, lekin u 1082-yilda vafot etgan. Bir necha yil o‘tgach, sulton Malikshoh Turkon xotundan tug‘ilgan ikkinchi o‘g‘li Ahmadni merosxo‘r deb e’lon qiladi, ammo u ham tez orada 1088-yilda vafot etadi. Ularning uchinchi o‘g‘li Mahmud 1087-yilda tug‘ilgan bo‘lib, u gudak bo‘lganligi uchun taxt vorisi etib tayinlash biroz mushkul edi. Sulton Malikshohning boshqa xotinlaridan yana bir nechta o‘g‘illari bo‘lib, ularning ichida yoshi kattasi Barqiyoruq hisoblangan. Shaxzoda Barqiyoruq Malikshohning amakivachchasi Zubayda xotun bilan nikohidan tug‘ilgan o‘g‘li edi. Turkon xotun esa o‘zining gudak farzandi Mahmudni rasman valiahd qilib tayinlashini istardi. Biroq, Malikshohning vaziri Nizomulmulk bunga qarshi chiqib, o‘g‘illarning kattasi valiahd bo‘lishi kerak, degan fikrni bildirgan [Bosworth, 77]. Shu asosda Turkon xotun va Nizomulmulk o‘rtasida nizo kelib chiqqan.

Garchi Nizomulmulk saljuqiylar ma’muriy boshqaruv tizimida hukmron shaxs hisoblansada, u hech qachon saroyda Turkon xotun kabi mavqega ega bo‘lмаган. Bosh vazir uzoq vaqt davomida sultonga beqiyos ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, uning sulton xotinlari, shahzodalar va ularning atrofidagilarga ta’siri ancha zaif edi. Shu sababdan saroyda nufuzi baland bo‘lgan Turkon xotun o‘z atrofida vazir Nizomulmulkga qarshi bo‘lganlarni yig‘gan va ularning orasida malikaning shaxsiy vaziri Toj al-Mulk ham edi. Shubhasiz, Nizomulmulk o‘z asari “Siyosatnoma”da “Parda orqasida va saroy haramida bo‘lgan ayollar hamda qo‘l ostidagilarning hadlari va ish tartibi haqida” degan maxsus faslni yozganida, saroydagi ayollarning zararli ta’siri va ularning hukmdorni chalg‘ituvchi maslahatlarini qoralaganda katta ehtimol bilan Turkon xotunni nazarda tutgan: “Podshohning qo‘li ostida bo‘lgan kishilar hadlaridan oshib, buyruq beruvchi bo‘lib ketishlari mumkin emas, chunki podshohlikning buyukligi va shukuhi yo‘qoladi. Xususan, ayollar parda ortidagi kishilar bo‘lib, aqllari noqisdir. Ayollarning asosiy ishlari va vazifalari nasl-u avlodni saqlashdan iborat. Ayollarning qaysinisi asil bo‘lsa, shunisi yaxshi va qaysi birlari qanoatli bo‘lsalar, shular maqtovga arzigelikdir...”[Nizomulmulk, 204].

Biri saljuqiylar davlatning boshqaruv ustuni bo‘lgan Nizomulmulk va ikkinchisi sultonning suyukli xotini hisoblangan Turkon xotun o‘rtasidagi asosiy qarama-qarshilik taxt vorisligi

masalasida bo‘lgan. Turkon xotun ikki katta o‘g‘illari vafot etgach ham tinchlanmaydi va taqdirning bu ogohlantirishlariga e’tibor bermay, uchinchi o‘g‘li Mahmudni, garchi u sultonning boshqa o‘g‘illari orasida eng kichigi bo‘lsa-da, saljuqiylar taxtining vorisi deb e’lon qilinishini talab qila boshlaydi.

Malikshohning boshqa xotinlaridan ham o‘g‘illari borligi uchun taxt vorisligi masalasi ko‘tarilganda, barcha omillar sultonning katta o‘g‘li Barqiyoruqning foydasiga ishora qilardi. Bunga nafaqat uning katta o‘g‘il ekanligi, balki onasining saljuqiylar avlodidan bo‘lgani ham sabab edi. Bu esa davlatning ko‘plab yuqori martabali amaldorlarining Barqiyoruqqa bo‘lgan munosabatiga ta’sir ko‘rsatardi. Malikshoh bosh vaziri bilan bu muhim masalani muhokama qilganida, Nizomulmulk Barqiyoruqning foydasiga fikr bildiradi. Sulton suyukli xotini Turkon xotun ig‘volari sababli, Nizomulmulkka nisbatan nafrati kuchayib borayotganiga qaramay, bu holatda ham uning maslahatiga amal qilishga moyil bo‘la boshlaydi. Biroq eriga ta’sir o‘tkaza oladigan Turkon xotun bunga sira rozi bo‘lolmasdi [Султанов, 168].

Turkon xotun toju-taxtning tanho egasiga aylanish va o‘zining gudak farzandi Mahmudni qonuniy merosxo‘r sifatida e’lon qildirish uchun har qanday qabih ishlarni qilishga qodir edi. U bosh vazir Nizomulmulkni oxir-oqibat saroydan chetlashtirishga muvaffaq bo‘lgan. Bunga ham ko‘ngli to‘lmay vazirning siyosiy raqiblari bo‘lmish Alamut ismoiliylari bilan yashirin tarzda til biriktirib, uni jismonan yo‘q qilishga erishgan. Natijada 1092-yil 14-oktyabrda Isfahon shahridan Bog‘dodga ketayotgan Nizomulmulk hashshoshiy qotil tomonidan Nahovand yaqinida o‘ldirilgan [Bosworth, 101].

Vazir Nizomulmulk o‘limidan ko‘p o‘tmay Turkon xotun va sulton Malikshoh Bag‘dodga yo‘l olishadi. Bu tashrifning sababi sulton Malikshoh Abbosiyo xalifa al-Muqtadiyni Bag‘dod taxtidan olib, uning o‘rniga o‘z nabirasi ya’ni suyukli xotini Turkondan tug‘ilgan qizi Mohmalak va xalifaning o‘g‘lini o‘tqazmoqchi edi. Afsuski sulton ushbu niyatiga yetolmasdan 1092-yil 19-noyabrda Bog‘dod yaqinidagi o‘z qarorgohida vafot etadi [Султанов, 170].

Xalifa al-Muqtadiy taxminan 1086-yilda Isfahonga elchi yuborib, saljuqiylar malikasi Mohmalakga sovchi qo‘ygan. Sulton Malikshoh elchilarni Turkon xotun huzuriga yo‘llab, qizining ixtiyori xotini qo‘lida ekanligini ma’lum qiladi. Turkon xotun elchilarga qizi Mohmalakga Qoraxoniylar va G‘azna sultonlari uylanmoqchi ekanligini aytib, agar xalifa qiziga uylanmoqchi bo‘lsa, 400 ming dinor berishi kerakligini bildirgan. Sovchilik uchun kelgan elchilar Turkon xotunga xalifa bilan savdolashish noo‘rin ekanligini eslatishgan. Shundan so‘ng o‘jar Turkon xotun qizining mahri 100 ming dinor bo‘lishi va xalifaning boshqa xotinlari hamda cho‘rilari bo‘lmasligi sharti bilan qizining nikohiga rozilik bergen [Bezer, 510]. Ibn al-Asirning yozishicha, xalifa va Mohmalakning to‘yi 1087-yilda katta dabdaba bilan nishonlangan.

Mohmalak xalifadan Abu al-Fadl Ja'far ismli o‘g‘il farzand ko‘rgan. O‘g‘il farzand ko‘rgan saljuqy malika Mohmalakning qaysidir ma’noda onasi Turkon xotunning ko‘rsatmalariga asosan xalifa al-Muqtadiyga toqat qilib bo‘lmaydigan talablari ko‘payib ketgan. Natijada 1088-yilning o‘rtalarida malikaning turkiy xizmatkorlari o‘zlarining nomunosib xulq-atvorlari tufayli xalifa haramidan haydab chiqarilgan. Xalifaning bu ishidan norozi bo‘lgan saljuqiy malika Mohmalak ota-onasiga erining e’tiborsizligidan shikoyat qilgan va Turkon xotun hamda Malikshoh xalifadan uni ota-onasining uyiga qaytarishni talab qilishgan. Ota-onasining oldiga qaytganidan ko‘p o‘tmay, Mohmalak vafot etgan, bu esa Turkon xotun va sulton Malikshoh tomonidan qizining o‘limida aybdor deb hisoblagan xalifaga nisbatan nafratni keltirib chiqargan [Ibn al-Asir, 221].

Al-Husayniyning yozishicha, sulton Malikshoh vafot etgan paytda uning yonida faqat kenja o‘g‘li Mahmud va uning onasi Turkon xotun bo‘lgan. Ammo Turkon xotun sultonning o‘limini o‘z vaziri Toj al-Mulk yordami bilan amirlar va saroy ayonlariga katta sovg‘a-salomlar berish evaziga, o‘zining besh yoshli o‘g‘li Mahmudga qasamyod keltirishlariga, xalifa esa uni valiahd deb tasdiqlashiga erishmaguncha sir tutgan. U pul va mansab berish evaziga amirlarni o‘z tomoniga og‘dirib, o‘g‘li Mahmudni sulton deb e’lon qilgan. Bu paytda Mahmud to‘rt yosh-u bir necha oylik edi. Turkon xotun xalifa al-Muqtadiydan Bog‘dodda o‘g‘li Mahmud nomidan xutba o‘qitishni so‘ragan. Saroy ayonlaridan hisoblangan imom G‘azzoliy e’tiroz bildirib, bola sulton bo‘la olmaydi, deb fatvo bergen bo‘lsa-da, Turkon xotun bilan kelishgan xalifa 1092-yil 25-noyabrda yosh Mahmud nomidan xutba o‘qishga farmon bergen. Ehtimol, Turkon xotun xalifaning roziliginini olish uchun o‘z nabirasi Ja’farni unga topshirishga rozi bo‘lgandir. Xalifa hech kim hech qachon xalifalikni saljuqiylarga o‘tkazib qo‘ymasligi uchun o‘g‘lini o‘z yonida saqlashni istardi [Bosworth, 100].

Sadriddin Ali saljuqiy amirlar va qo‘sining yosh Mahmudga qasamyod qilishining uchta sababini aytib o‘tgan: “Birinchisi - uning onasi Turkon xotun Sulton Malikshoh hukmronligi davrida barcha ishlarda to‘la hokimiyatga ega bo‘ldi. U qo‘sining mehribon edi va ular uning o‘g‘lini afzal ko‘rdilar. Ikkinci sabab esa uning turk hukmdorlari avlodidan ekanligi edi. Aytishlaricha, u Afrosiyob naslidan ekan. Uchinchisi shundan iborat ediki, xazina mablag‘lari Turkon xotun qo‘lida bo‘lib, ularni qo‘sinchilarga tarqatar edi” [Sadriddin Ali, 327].

Sulton Malikshoh vafot etgan paytda uning katta o‘g‘li Barqiyoruq Isfahonda edi. Turkon xotun Bog‘dodda barcha ishlarni o‘z foydasiga hal qilgach, taxt yo‘lidagi asosiy davogar Barqiyoruqni qo‘lga olish uchun Mosul otabegi amir Kirbog‘ani qo‘sish bilan Isfahonga yuboradi. Biroq, Turkon xotunning rejalari sobiq vazir Nizomulmulkning tarafdorlari tomonidan barbos qilinadi, ular saljuqiylar avlodidan bo‘lgan Zubayda xotunning o‘g‘li Barqiyoruqni

qo‘llab-quvvatlaydilar. Bo‘rqiyyoruqni himoya qilib, uni otabek Kumush-Tegin Jandor qo‘sini joylashgan Sava shahriga olib ketishadi. Otabek esa shahzoda bilan Rayga borib, uni sulton deb e’lon qiladi. Isfahonda esa yosh o‘g‘li Mahmud nomidan Turkon xotun Buyuk saljuqylarning davlatini idora qila boshlaydi. Shu tarzda saljuqiyalar imperiyasi tarixida ilk bor ikki oliv hukmdor paydo bo‘ladi: Isfahonda Mahmud va Rayda Barqiyorouq. Juma xutbasida qardosh hukmdorlarning nomlari barobar tilga olinib, ularning har biri o‘z tangalarini zarb qildiradi. Raqobatdosh kuchlar muvozanatini aks ettiruvchi siyosiy hokimiyatning bunday ikki boshliligiga asoslangan tizim, vujudga kelgan vaziyatdan chiqishning qulay yo‘li edi [Агаджанов, 116]. Bu davrda Isfahonda yashagan va sobiq vazir Nizomulmulk homiyligida ilm bilan shug‘ullangan Umar Xayyom voqealar rivojini o‘z ko‘zi bilan kuzatib borgan va Turkon xotunning harakatlari haqida quyidagi mashhur to‘rtlikni yozgan:

Kimning dasturxonida may, shirinliklar va palov bor?

Johil nodonning. Ha, taqdir shu ekan, afsus!

Dunyodagi eng go‘zal ko‘zlar - Turkon xotunniki,

Kimning o‘ljasi bo‘ldi? G‘ulomlar va qullarning [Султанов, 197].

Turkon xotun, hokimiyatni egri yo‘llar bilan qo‘lga kiritgan boshqa hukmdorlar singari, o‘z xavfsizligini ta‘minlash maqsadida ochiq va yashirin dushmanlarini, hatto shunchaki dushman bo‘lib tuyulganlarni ham ta‘qib etardi. Ayniqsa, uning eski raqibi Nizomulmulk tarafdarlariga shafqatsiz zarbalar beradi. Saroy fitnalariga usta bu ayol, har qanday “oddiy” odam, garchi ishonish qiyin bo‘lsa-da, hokimiyatga da’vo qilish huquqiga ega bo‘lsa, qulay sharoit tug‘ilganda bundan voz kechmasligiga ishonardi. Shu sababdan ham Turkon xotun Isfahonda Nizomulmulk homiylik qilgan barcha olimlar va ulamolarga moddiy yordam berishni to‘xtatib qo‘yadi.

1093-yilning yanvar oyida Isfahon va Karaj shaharlari oralig‘idagi Borudjird yaqinida Barqiyorouq Turkon xotun tarfadorlari o‘rtasida jang bo‘lib o‘tadi va unda sulton Barqiyorouq qo‘sini Turkon xotun qo‘sini mag‘lubiyatga uchratadi. Mag‘lubiyatdan so‘ng Turkon xotun tarafdarlarining bir qismi Isfahonni qamal qilgan Barqiyorouq tomoniga o‘tib ketadilar. Noiloj qolgan Turkon xotun Barqiyorouq bilan sulh tuzishga va uni sulton deb tan olishga rozi bo‘ladi. Ammo, o‘g‘li Mahmudga saljuqiyalar vorisligu uchun Isfahon va Forsni iqto sifatida olishga erishadi. Sundan keyin ham Turkon xotun taslim bo‘lishni o‘ylamagan, chunki u Barqiyorouq bilan o‘rtasida tuzilgan sulhni ittifoqchilar izlash uchun tanaffus deb bilgan. Turkon xotun saljuqiy malika Zubaydaning ukasi, Ozarbayjon voliysi Qutbiddin Ismoil ibn Yoqutga murojaat qilib, unga turmushga chiqishni va o‘g‘lining Barqiyorouq bilan qarindoshligidan foydalanib, taxtga o‘tirishiga yordam berishni taklif qiladi. Qutbiddin Ismoil bu taklifni qabul qiladi, ammo

1093-yilda Karaj yaqinidagi jangda mag‘lubiyatga uchraydi va Turkon xotun bilan Isfahonda yashirinishga majbur bo‘ladi. Turkon xotun Isfahonda dinorlar zarb qildirib, o‘g‘li Mahmud va yangi bo‘lajak eri nomiga xutba o‘qittiradi [Atçeken Z., 89]. Ammo, toju-taxt uchun rejalarshirilgan nikoh amalga oshmaydi, chunki lashkarboshilar Ismoilning Turkon xotunga uylanishiga qarshi chiqadilar. Qutbiddin Ismoil sulton Barqiyoruqning ham otasi, ham onasi tomonidan qarindoshi bo‘lganligi sababli, u singlisi Zubaydani o‘z tomoniga og‘dirishga urinadi, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchrab, sulton Barqiyoruqning buyrug‘i bilan 1093-yilning kuzida qatl etiladi.

1094-yil fevral oyida kutilmaganda Bog‘dod xalifasi, Turkon xotunning tarafdori al-Muqtadiy vafot etadi. Yangi xalifa Al-Mustajir Billoh saljuqiylar sultoni sifatida yosh Mahmudni emas, balki Barqiyoruqni tan oladi. Saljuqiylar taxtini egallash fikridan qaytmagan Turkon xotun yangi ittifoqchi izlab, yana bir saljuqiy shahzoda Tutush bilan ittifoq tuzishga harakat qiladi. Ammo, Turkon xotun 1094-yil ramazon oyida, sentyabr-oktyabr oralig‘ida kasallanib vafot etadi. Ehtimol, uni ham haddan ziyyod mustaqilligini istamagan amirlar zaharlab o‘ldirgan bo‘lishi mumkin. O‘limidan oldin Turkon xotun o‘zining sodiq amirlari Onar va Surmazlarga o‘g‘li Mahmudga vasiylik qilishni vasiyat qilgan. Mahmudning mulki Isfahon bilan cheklangan bo‘lib, qo‘smini 10 ming otliq askardan iborat edi. Barqiyoruq va Mahmudning tarafdorlari saltanat taxtini Tutush egallab olmasligi uchun vaqtinchalik yarashuvga majbur bo‘lganlar. Amirlar ozgina ikkilanishdan so‘ng, Isfahon shahri darvozalarini Barqiyoruq qo‘sning ochib beradilar. Shunda ham Mahmudning tarafdorlari qulay fursatda sulton Barqiyoruqni o‘ldirish rejasini tuzib qo‘yadilar. Biroq bu safar ham omad Barqiyoruqga kulib boqadi: Mahmud kutilmaganda chechak kasalligiga chalinib, 1094-yilning noyabr oyida vafot etadi [Sadriddin Ali, 341].

Xulosa qilib aytganda, saljuqiy sulton Malikshohning suyukli xotini Turkon xotun toju-taxt uchun kurashlarda albatta o‘z farzandlari manfaatlarini himoya qilgan va bu barcha sharq ayollariga xos bo‘lgan hislat edi. Turkon saroyda o‘z farzandlarini taxt merosxo‘ri qilish uchun o‘sha davrning ya’ni saljuqiylarning buyuk vaziri Nizomulmulkka qarshi zimdan kurash olib borgan va o‘z atrofida boylik, mansab xohishida bo‘lgan amaldorlarni yig‘ishga muvaffaq bo‘lgan. U farzandlarini taxtga chiqarish uchun hatto dushmanlari bilan ham kelishuvlardan qaytmagan va oxir-oqibat ayolning toji-taxt uchun kurashlari davomida uning barcha farzandlari o‘lib ketgan, o‘zi ham fojeali tarzda vafot etgan. Shuningdek, ushbu ayolning toju-taxt uchun kurashlari qaysidir ma’noda buyuk saljuqiylar davlatining tanazzuli boshlanishi hamda uni ikki qismga bo‘linib ketishiga sabab bo‘lgan.

Adabiyotlar/ References/ Литература

1. Агаджанов С.Г. Государство Сельджукидов и Средняя Азия в XI-XII вв. – Москва: Наука, 1991. – 303 с.
2. Bezer G.Ö. Terken Hatun // Islam Ansiklopedisi 40. - 2011. – S. 510.
3. Bosworth C.E. The Political and Dynastic History of the Iranian World (A.D. 1000-1217) // The Cambridge History of Iran / edited by J.A.Boyle. – Cambridge, 1968. – 211 p.
4. Nizomulmulk. Siyosatnoma / Muharrir Aftondil Erkinov; tarjimon Shodmon Vohidov. – Toshkent: Trust and Support, 2023. – 288 b.
5. Султанов Ш.З., Султанов К.З. Омар Хайям (Жизнь замечательных людей). – Москва: Молодая гвардия, 1987. – 320 с.
6. Ибн ал-Асир. «Ал-Камил фи-т-та’рих» «Полный свод истории». Избранные отрывки / Пер. с араб. яз., прим. и comment. П.Г.Булгакова; Доп. к пер., прим. и comment., введ. и указ. Ш.С.Камолиддина; Отв. ред. М.Исхоков – Ташкент: Узбекистан, 2006. – 560 с.
7. Садр ад-Дин Али ал-Хусайн. Ахбар ад-даулат ас-сельджукийа / Пер. З.М.Буняитова. – Москва: Восточная литература, 1980. – 639 с.
8. Atçeken Z., Yaşar B. Malazgirt’ten Vatana Anadolu Selçuklu Devleti Tarihi. – İstanbul: Eğitim Yayınevi, 2016. – 352 S.